NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING DIDAKTIK-PRAGMATIK VA KOMMUNIKATIV XOSLANISHLARI

Xolmuradova Jamila Irmetovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti
E-mail: jamilaxalmuratova66@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarida maqol va matallarning didaktik-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning nutqiy vaziyatni boshqarish, axloqiy yo‘naltirish, ogohlantirish va murosaga chaqirishdagi roli yoritiladi. Ularning bilvosita ta’sir mexanizmi orqali tinglovchiga samarali yetkazilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologik birliklar, maqol va matallar, doston nutqi, pragmatika, didaktika, nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya.*

ДИДАКТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ДАСТАНАХ

Аннотация: *В статье анализируются дидактико-прагматические особенности пословиц и поговорок в узбекских народных дастанах. Рассматривается их роль в управлении речевой ситуацией, нравственном воздействии, предупреждении и достижении компромисса. Обосновывается эффективность косвенного прагматического воздействия на слушателя.*

Ключевые слова: *паремиологические единицы, пословицы и поговорки, дастан, прагматика, дидактика, речевая ситуация, коммуникативная стратегия.*

DIDACTIC-PRAGMATIC AND COMMUNICATIVE FEATURES OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN UZBEK FOLK EPICS

Abstract: *This article examines the didactic and pragmatic features of proverbs and sayings in Uzbek folk epics. It highlights their role in managing speech situations, moral guidance, warning, and promoting compromise. The effectiveness of their indirect pragmatic influence on the audience is also substantiated.*

Keywords: *paremiological units, proverbs and sayings, epic discourse, pragmatics, didactics, speech situation, communicative strategy.*

Kirish

Maqol va matallarning asosiy pragmatik vazifalaridan biri – o‘git berishdir. Dostonlarda o‘git bevosita buyruq yoki nasihat shaklida emas, balki paremiologik birliklar orqali bilvosita yetkaziladi. Bu bilvositalik tinglovchi tomonidan qarshiliksiz qabul qilinishini ta’minlaydi. Tinglovchi maqol yoki matalni shunchaki matn elementi sifatida emas, balki xalq donoligi ifodasi sifatida qabul qiladi. Shu sababli o‘git majburlov sifatida emas, balki tabiiy haqiqat sifatida anglanadi.

Adabiyotlar tahlili

Maqol va matallar (paremiologik birliklar) tilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni bir necha guruhga bo‘lib tahlil qilish mumkin. Birinchidan, *leksik-semantik yo‘nalishdagi tadqiqotlar*da maqol va matallarning ma’no tuzilishi, ko‘p qatlamli semantikasi hamda umumlashtirish xususiyati tahlil qilinadi. Jumladan, X.S.Ro‘zimboyev, A.A.Halikov, I.Umarov, N.Hamdamova, M.Yaqubova, G.Egamberdiyeva, D.Xudayberganova, M.H.Jumaniyazova, A.S.Rahimovlarning ishlarda paremiologik birliklarning obrazli tafakkur mahsuli sifatidagi xususiyati, ularning ko‘chma ma’no hosil qilish mexanizmlari ochib beriladi.

Ikkinchidan, *lingvostilistik va lingvopoetik tadqiqotlar* maqol va matallarning badiiy ifoda vositasi sifatidagi imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Jumladan. A.M.Eshmuratov, Sh.Mamadiyev, X.Q.Toshmatov, G.Jumanazarovalarning tadqiqotlarida ularning obrazlilik, ekspressivlik, ritmik tuzilish kabi xususiyatlari yoritilib, nutqdagi estetik ta’siri asoslab beriladi.

Uchinchidan, *pragmatik va kommunikativ yo‘nalishdagi izlanishlar*da maqol va matallarning nutqiy vaziyatni boshqarishdagi roli tahlil qilinadi. D.A.Ashurov, N.Sobirova, O.Sultanova, Y.N.Xodjiyevlarning tadqiqotlarida ularning

bilvosita ta’sir ko‘rsatish, o‘git berish, ogohlantirish, ishontirish hamda murosaga chaqirish funksiyalari asosiy tadqiq obyekti sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot zamonaviy lingvistikaning pragmatika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya, paremiologiya va kognitiv tilshunoslik yo‘nalishlariga tayanadi. Kompleks metodologik yondashuv doston matnini ko‘p qatlamli kommunikativ tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili

Doston kontekstida maqol va matallar ko‘pincha qahramonlarning nutqida ishlatiladi. Bu holat o‘gitning qahramon shaxsi orqali legitimlashtirilishiga xizmat qiladi. Agar maqol ijobiy qahramon nutqida qo‘llansa, uning didaktik ta’siri yanada kuchayadi. Tinglovchi bunday qahramonni axloqiy namuna sifatida qabul qiladi va uning nutqidagi paremiologik birliklar orqali berilgan o‘gitni ichki me’yor sifatida singdiradi. Masalan, *“Begunoh xalqni qonini bekorga to‘kmaklik gunoh bo‘lur”* kabi birliklar juda ko‘p uchraydi[1].

Maqol va matallarning didaktik vazifasi ko‘pincha xulosa chiqarish mexanizmi orqali amalga oshadi. Doston syujeti davomida voqealar rivojlanadi, konfliktlar yuzaga keladi va ma’lum bir nuqtada maqol yoki matal keltiriladi. Bu paremiologik birlik voqealarning mantiqiy yakuni sifatida xizmat qiladi. Tinglovchi voqeani baholashda aynan shu birlikka tayangan holda xulosa chiqaradi. Natijada xulosa muallif tomonidan ochiq aytilmagan bo‘lsa ham, tinglovchi ongida aniq shakllanadi.

Xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan maqol va matallar individual hodisani umumlashtiradi va uni universal axloqiy qoida darajasiga ko‘taradi. Bu jarayonda paremiologik birliklar voqea va tinglovchi o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Tinglovchi doston voqealarini real hayot bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ladi.

Dostonlarda maqol va matallar ko‘pincha dramatik vaziyatlarda qo‘llanadi. Bunday vaziyatlarda paremiologik birliklar voqealarning hissiy fonini tartibga soladi. Ular tinglovchining hissiy reaksiyasini barqarorlashtiradi va voqeani axloqiy baholashga yo‘naltiradi. Natijada tinglovchi faqat hayajonlanib qolmaydi, balki voqeadan ma’no chiqaradi.

Didaktik-pragmatik jihatdan qaralganda, maqol va matallar doston nutqida vaqt va makon chegaralarini yo‘qotadi. Ular o‘tmish voqealarini hozirgi tinglovchi uchun dolzarb qiladi. Tinglovchi o‘z hayotiy tajribasini doston voqealari bilan qiyoslab, paremiologik birlik orqali o‘z xatti-harakatlarini baholaydi. Bu holat maqol va matallarning tarbiyaviy kuchini yanada oshiradi.

Maqol va matallar yordamida doston nutqida muallif pozitsiyasi bilvosita ifodalanadi. Muallif yoki ijrochi o‘z axloqiy qarashlarini ochiq bayon qilmasdan, paremiologik birliklar orqali tinglovchini ma’lum yo‘nalishga yetaklaydi. Bu esa doston nutqining pragmatik samaradorligini oshiradi va uni majburlovdan holi qiladi.

Paremiologik birliklarning didaktik vazifasi ularning qisqa, lo‘nda va obrazli shakli bilan ham izohlanadi. Qisqa shakl tinglovchi xotirasida oson saqlanadi, obrazlilik esa hissiy ta’sirni kuchaytiradi. Shu bois maqol va matallar doston nutqida uzoq muddatli axloqiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. *“Do‘stlar yig‘lab, dushman kuldi”, “Do‘stlaring shod bo‘lib, dushman kulmasin”, “Qizil gulni do‘st bilib, bulbul ishi fig‘ondir”*maqollar xalq hayotining yorqin namunasidir[2].

Dostonlarda maqol va matallar orqali shakllangan axloqiy yo‘naltirish avloddan avlodga uzatiladi. Har bir yangi ijroda paremiologik birliklar yangicha kontekstda yangicha talqin qilinadi, ammo ularning asosiy didaktik yadrosi saqlanib qoladi. Bu holat doston paremiologiyasining barqarorligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Maqol va matallarning didaktik-pragmatik vazifalari doston nutqini oddiy badiiy hikoyadan farqlab, uni axloqiy-ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli kommunikativ tizimga aylantiradi. Aynan shu birliklar orqali dostonlar xalq hayotida nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O‘zbek xalq dostonlari tilida paremiologik birliklar nutqiy vaziyatni boshqaruvchi muhim pragmatik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Maqol va matallar doston matnida shunchaki umumiy donolik ifodasi bo‘lib qolmay, balki muomala jarayonini yo‘naltiruvchi, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va kommunikativ strategiyalarni belgilovchi birliklar sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois paremiologik birliklarning pragmatik imkoniyatlarini nutqiy vaziyatni boshqarish nuqtayi nazaridan tahlil qilish doston tilining kommunikativ mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy vaziyatni boshqarishda paremiologik birliklarning eng asosiy vazifalaridan biri – muomala strategiyasini belgilashdir. Dostonlarda maqol va matallar ko‘pincha dialog yoki monologning muhim burilish nuqtalarida ishlatiladi. Bunday paytda paremiologik birlik suhbatning keyingi yo‘nalishini belgilab beradi: keskinlik kuchayadimi yoki yumshaydimi, qarama-qarshilik chuqurlashadimi yoki murosa sari yo‘naladimi – bularning barchasi paremiologik birlik orqali berilgan signalga bog‘liq bo‘ladi[3].

Muomala strategiyasi sifatida qo‘llangan paremiologik birliklar nutq ishtirokchilariga o‘zaro munosabatning maqbul shaklini ko‘rsatadi. Masalan, keskin vaziyatda keltirilgan maqol suhbatni to‘xtatish, ohangni pasaytirish yoki qarama-qarshilikni boshqa yo‘nalishga burish vazifasini bajaradi. Bu holatda paremiologik birlik bevosita buyruq

bermaydi, balki umumiy hayotiy tajribaga tayangan holda muomala me'yorini eslatadi.*"Sabr –vaqtixushlikning kalitidir"* maqoli har zamon uchun muhim va zaruratdir.

Doston matnida murosaga chaqirish paremiologik birliklarning muhim pragmatik vazifalaridan biri hisoblanadi. Konfliktli vaziyatlarda maqol va matallar orqali tomonlar keskin qarama-qarshilikdan qaytariladi, muvozanat va kelishuv g'oyasi ilgari suriladi. Bunday paremiologik birliklar tinglovchiga ham, qahramonlarga ham bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi. Tinglovchi bunday vaziyatda mojaroni axloqiy mezonlar asosida baholashga undaladi[4].

Ogohlantirish paremiologik birliklarning yana bir muhim pragmatik vazifasi hisoblanadi. Dostonlarda maqol va matallar orqali qahramonlar ehtimoliy xatolardan, noto'g'ri qarorlardan yoki xavfli xatti-harakatlardan ogohlantiriladi. Bu ogohlantirish bevosita tahdid yoki buyruq shaklida emas, balki umumlashtirilgan hayotiy tajriba shaklida etkaziladi. Natijada tinglovchi ogohlantirishni rad etmaydi, balki uni jiddiy qabul qiladi. Masalan, dostonda *"Va'daga vafo"(*121-bet), *"Tuz egan joyingga xiyonat qilma"*(158-bet), kabi maqollar borki, u kishilarni xavfli xatti-harakatlardan ogohlantiriladi[1].

Nutqiy vaziyatni boshqarishda paremiologik birliklar dialogik jarayonda alohida rol o'ynaydi. Ular suhbat ishtirokchilari o'rtasidagi kuch muvozanatini tartibga soladi. Ba'zan maqol keltirgan qahramon ma'naviy ustunlikka erishadi, chunki u o'z fikrini shaxsiy mulohaza emas, balki umumiy donolik darajasiga ko'taradi. Bu esa boshqa ishtirokchilarni murosaga yoki sukutga majbur qiladi. Masalan, *"Aytuvchi ahmoq bo'lsa, tinglovchi dono bo'lishi kerak"* maqoli shu mavzuga mos keladi[2].Paremiologik birliklarning nutqiy vaziyatni boshqarishdagi roli ularning bilvosita ta'sir mexanizmi bilan chambarchas bog'liq. "Maqol va matallar ochiq bahsga kirishmaydi, balki bahsni chetlab o'tib, umumiy xulosaga yetaklaydi. Shu sababli ular konfliktni yumshatish va kommunikativ muvozanatni tiklashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi" [3].

Paremiologik birliklarning murosaga chaqirish va ogohlantirish funksiyalari dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi. Tinglovchi doston voqealarini kuzatar ekan, real hayotdagi muomala vaziyatlarida qanday yo'l tutish kerakligi haqida bilvosita bilim oladi. Bu bilim majburlov orqali emas, balki nutqiy vaziyatni boshqaruvchi paremiologik birliklar orqali singdiriladi.

Dostonlarda paremiologik birliklar yordamida boshqarilgan nutqiy vaziyatlar ko'pincha muvozanatli yakun topadi. Bu yakun ochiq xulosa sifatida emas, balki tinglovchi ongida shakllangan ichki xulosa tarzida namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklar aynan shu ichki xulosani yuzaga chiqaruvchi pragmatik mexanizm vazifasini bajaradi. Dostonda *"Odam borki holi emas xatodan"*, *"Bu dunyoda har kim armonni chekar"*, *"Bulbulni maskani bog'."*[3].

Paremiologik birliklarning nutqiy vaziyatni boshqarishdagi roli ularning uzoq vaqt davomida faol qo'llanib kelishining asosiy sabablaridan biridir. Ular doston nutqini faqat estetik hodisa emas, balki murakkab kommunikativ tizimga aylantiradi. Tinglovchi bunday nutq orqali nafaqat voqealarni, balki muomala madaniyatini ham o'zlashtiradi.

Doston paremiologiyasida an'anaviy bilim markaziy o'rin egallaydi. Maqol va matallar orqali xalqning hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlar haqidagi qarashlari, axloqiy mezonlari va amaliy donoligi kodlangan bo'ladi. Ushbu bilimlar tizimi doston matnida tayyor xulosa shaklida namoyon bo'ladi va tinglovchidan murakkab tahlil talab qilmaydi. Bu holat paremiologik birliklarning pragmatik samaradorligini oshiradi, chunki ular tez va oson qabul qilinadi.

Xulosa

Doston paremiologiyasida kollektiv ong va pragmatik ta'sir bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. An'anaviy bilim xalqona mantiq orqali ifodalanadi, xalqona mantiq esa auditoriyani ishontirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm doston nutqini shunchaki badiiy matn emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchli kommunikativ vositaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хоразм достонлари. Аваз уйланган. –Урганч: "Хоразм" нашриёти, 2000. – Б.116.

2.Хоразм достонлари. Ошиқнома. 5-китоб. Сайёд ва Ҳамро. – Урганч: "Хоразм" нашриёти, 2011. – Б .35.

3. Пермяков Г. Л.. От поговорки до сказки. – Москва: Наука.